



Rahmatillo AKBAROV,
Namangan davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: saidakbar01@mail.ru

Namangan davlat universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi Z.Sh. Madraximov taqrizi asosida

IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRIDA JANGCHILARGA HARBIY TA'LIM BERISHDA O'ZBEK MATBUOTINING ROLI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek milliy matbuotida jangchilarni harbiy texnika va qurollardan foydalanish, jang vaqtida qanday harakat qilish, dushman tankalariga qarshi kurashish usullariga bag'ishlangan maqolalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: okop, qo'l pulemyoti, piyodalar nizomi, rus miltig'i, tankka qarshi jang, artilleriya.

РОЛЬ УЗБЕКСКОЙ ПРЕССЫ ПРИ ВОЕННОМ ВОСПИТАНИИ ВОИНОВ В ПЕРИОД ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

Аннотация

В данной статье ведется анализ статей посвященных освящению военной техники и использование оружия, как действовать во время боя, способы борьбы против танков противника в узбекской национальной прессе.

Ключевые слова: акомп, ручной пулемет, устав пешехода, русская винтовка, война против танков, артиллерия.

THE ROLE OF THE UZBEK PRESS IN MILITARY TRAINING FOR SOLDIERS DURING THE SECOND WORLD WAR

Abstract

This article analyzes the articles in the Uzbek national press during the Second World War on the use of military equipment and weapons by fighters, how to act in battle, how to fight enemy tanks.

Key words: trench, machine gun, infantry, russian rifle, tank battle, artillery.

Kirish. Ikkinchi jahon urushi davrida o'zbek milliy gazetalarini fashistik Germaniya va uning ittifoqchilariga qarshi xalqni birlashtirish, jangchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim o'rin egallab, erishilayotgan yutuq va dushmandan ozod qilingan hududlar, mamlakatdagi sanoat va qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma'lumot berib borish bilan birga jangchilarning harbiy bilimlarini oshirish, jang olib borish usullari to'g'risida ham maqolalarni muttasil tarzda chop etib borgan. Bunday maqolalar jangchilar uchun o'ziga xos jangovor qo'llanma vazifasini bajargan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ikkinchi jahon urushi davrida nashr qilingan gazetalarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchisi – jang harakatlari olib borilayotgan hududlarda nashr etilayotgan nashrlar; Ikkinchisi – O'zbekistonda o'zida jumladan viloyatlarda nashr etilgan gazetalar. Birinchi turdagi gazetalar "Dushmanga qarshi olg'a", "Qizil armiya", "Vatan uchun", "Bong", "Vatan sharafiga uchun" singari gazetalarni keltirish mumkin. Ikkinchi turdagi gazetalarga esa poytaxt – Toshkentdan chiqib turgan "Qizil O'zbekiston", Namangan viloyatida – "Stalin haqiqati", Andijon viloyatida – "Komunist" va boshqa gazetalar faoliyat ko'rsatgan. Birinchi turdagi front gazetalarda chop etilgan maqolalarni asl xolicha jamlanib, "Ikkinchi jahon urushi va front gazetalari" nomli uch jildidan iborat kitob (qarang: SHamsutdinov R. Ikkinchi jaxon urushi va front gazetalari. 1,2,3-kitoblar. – T.: Akademiya nashri, 2017.) nashrdan chiqarilgan bo'lib, tadqiqot ishida ushbu kitob maqolalaridan keng foydalanib, harbiy ta'limga bag'ishlangan ma'lumotlar tahlil qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ikkinchi jahon urushi davri matbuotida harbiy bilim va jang olib borish usullari to'g'risida ko'plab maqolalar nashr etib borilgan. Bunday maqolalar esa shartli ravishda ikkiga bo'linadi: to'raligicha harbiy ta'limga

qaratilgan va jangchilar tili bilan yozilgan jang tajribalari to'g'risidagi maqolalar.

Ilmiy tadqiqot ishida jangchilar tili bilan yozilgan maqolalar umumiylikdan xususiylikka qarab o'tish metodi orqali tahlil qilindi va maqoladan ko'zlangan maqsad, uning asl mazmun-mohiyati ochib berildi.

Tahlil va natijalar. Urushning dastlabki oyidayoq yuz minglab vatandoshlarimiz qo'lga qurol olib frontga jo'nab ketdilar. O'rta Osiyo harbiy okrugi front uchun jangchilar va zobitlar tayyorlaydigan o'choqqa aylantirildi. Milliy qo'shilma askarlari va zobitlariga yaxshi harbiy ta'lim berishda, ular bilan frontni mustahkamlashda O'zbekistonda tuzilgan zaxiradagi 24-o'qchi diviziya katta rol o'ynadi.[1]

Urush yillarida asosan jangchilar va front orqasidagi mehnatkashlarni, ayniqsa, yoshlarni harbiy-jismoniy tayyorlash ishlariga katta e'tibor berildi. 1941-yilning sentabrda umumiy harbiy tayyorgarlik joriy etildi. Harbiy-o'quv punktlari tashkil etilib, uning mashg'ulotlari 110 soatlik reja asosida o'tkazilgan. Mashg'ulotlarda tig' (shtik) sanchish, miltiqni ishlatish, granata uloqtirish, to'siqlardan oshish kabi mashqlar o'rgatilgan.

Harakatdagi armiya jangchilari va front ortidagi aholining harbiy bilimlarini oshirishda o'zbek milliy gazetalarda ko'plab maqolalar muntazam nashr etib borildi. Gazeta sahifalarida rus miltig'ini ishlatish va saqlash, pulemyotdan foydalanish, pulemyotchining jangdagi vazifasi, nemis tanklariga qarshi jang qilish taktikasi, dushmanning sun'iy to'siqlaridan o'tish usullari haqida ko'plab ma'lumotlar berilgan.

Jumladan, gazeta sahifalarida armiyada eng ko'p tarqalgan qurol – miltiq haqida so'z borib, u o'zining o'q, nayza va qo'ndog'i bilan dushmanning jonli kuchlarini qirib tashlashda jangchi o'qchining asosiy quroli hisoblanishi aytiladi.

Urush yillaridagi "Stalin haqiqati" gazetasi da berilgan ma'lumotga ko'ra, urush davrida foydalanilgan rus miltig'i – 1891-1930 yillarning namunalariga qarab ishlangan bo'lib, tuzilishi va ishlatilishi jihatidan oddiy lekin, mustahkamligi hamda beto'xtov ishlashi bilan hamma armiyaning shu vaqtgacha bo'lgan xilma-xil miltiqlaridan ustun turgan. Rus miltig'ining imkoniyatlariga alohida e'tibor tortilib, miltiqni yaxshi ishlata olgan jangchi pana joydan bosh chiqargan dushmanni 200 metr masofadan, o'rmlab borayotgan dushmanni 300 metrcha masofadan, yurib o'tayotgan dushmani esa 400 metrcha masofadan nishonga olib yo'q qilish mumkinligi tushuntiriladi.[2]

Maqolada rus miltig'ining xususiyatlari to'g'risida batafsil to'xtalib, jangchilarni uning imkoniyatlaridan kengroq foydalanishga undaladi. Maqola tahlilining ko'rsatishicha, Miltiqdan o'qchilarning birlashib ochgan o'tlari yoki mergan o'qchi 800 metrcha bo'lgan masofadagi dushman to'dalarini qirib tashlaydi, 500 metrcha masofada bo'lgan aeroplanni urib tushirish mumkin bo'lgan. Miltiqdan har minutda 10 tacha o'q otish imkoniyati bo'lib, uning og'irligi esa 4,5 kg ni tashkil etgan. Jangchi bu qurolni quruqlikda ham suvda ham hamma vaqt o'zi bilan birga olib bora olishi mumkin bo'lgan. Bu bilan qurolning jangovor holati o'zgarib qolmagan.[2] Miltiqning barcha qismlarini hamda bu qismlarini otadigan vazifasini besh barmoqdek o'rganib olish, uni tez ajratib tuzatishda usta bo'lish juda katta ahamiyatga egaligi ta'kidlanadi. Rus miltig'i nayzasining ahamiyatiga katta e'tibor berilib, dushman transheyasi (dushman texnikasi va jangchilari joylashgan uzun chuqur yo'lak, xandaq)ga bostirib kirilganda miltiq nayzasidan foydalanishga chaqiriladi.

Gazeta maqolalarida harbiy ta'lim sohasida eng ko'p e'tibor qaratilgan jihat bu – har bir jangchini o'z qurolini yaxshi ishlata bilishga, uning imkoniyatlaridan kengroq foydalanishga chaqirish bo'lgan. Shunday maqolalardan birida ham O'z qurolini egallamagan, o'z hunarini yaxshi bilmagan jangchilar jang harakatlari vaqtida behuda halok bo'lganlaridan misollar keltirib, jangchilarga harbiy texnikani o'rganishga astoydil kirishish zarurligini uqtiriladi[3].

Urush davrida Oliy bosh qo'mondon Stalinning chiqargan 130-sonli buyrug'ida ham har kim o'z qurolini masteri (ustasi) bo'lsin deyilgan[4]. Jangchilarga o'zlari ishlatayotgan qurollarni asrab-avaylashga, doim jangga tayyor holatda saqlashga chaqiriladi. O'z qurollarini yaxshi saqlamagan jangchilar tanqid ostiga olinib, "Ular o'z qo'llaridagi qurollarini vaqtida tozalamay, moylamay shunday holga tushirib qo'yadilarki, natijada qurol jang paytida yaroqsiz bo'lib qoladi. Holbuki, qurol jang paytida ishlamay qolsa, oqibat nima bo'lishi hammaga ma'lum" deyiladi.[5]

Maqolalarda hujum janglarida piyoda askar qanday harakat qilish kerakligi haqida quyidagicha ma'lumotlar berib o'tiladi. Eng muhimi hujum qilayotib otib borish aytiladi. Pulemyotdan 600 metrdan, miltiqdan 400 metrdan, avtomatdan 200-300 metrdan mo'ljalga otish, o'qning yarmini otib bo'linganda komandirga bu haqida ma'lum qilish ta'kidlanadi. Dushman aviatsiyasini miltiqdan 500-600 metrgacha, pulemyot va bronteshar miltiqdan 800-1000 metrgacha ura olish imkoniyati mavjudligi tushuntiriladi. Dushman okopiga 40-50 masofa qolganda granata otish kerakligi, dushman okopiga yaqinlashganda "ura" deb qattiq qichqirib hujum qilish ("ura" so'zi hujum qilayotgan jangchilarning jangovor nidosi; ko'tarinki ruh bilan ma'qullash yoki hursandchilikni ifodalovchi nido, xitob hisoblandi) piyoda askarlar uchun eng dolzarb vazifalar ekanligi ta'kidlangan. Tankchilar bilan hujumda tankdan 50 metrdan ortiq orqada qolmaslik, tanklar uchun rangli o'q otib nishonni ko'rsatib berish kerak bo'lgan[6].

Matbuot sahifalarida hujum paytlarida yuz beradigan muammolar va ularning qanday bartaraf qilish masalasiga ham

alohida e'tibor berilgan. Hujum janglarida eng muhim muammolardan biri shundan iborat bo'lganki, dushman transheyalariga bostirib kirilganda ular o'rnatgan sim to'siqlariga duch kelingan, dushmanning sim to'siqlari oldingi transheyalaridan odatda 40-50 metr narivoqda, ba'zan 20-30 metr narida bo'lgan. Bunday sharoitda ishlash ya'ni sim to'siqlarni qirib jangchilarga yo'l ochish sapyorlar uchun ancha qiyin bo'lgan. "Tutun panasida" nomli maqolada Bunday vaziyatda tutunli shashkalardan foydalanish kerakligi aytiladi. Biroq bundan shamol dushman tomonga qarab esgandagina foydalanish mumkin bo'lgan.[7] Ko'p janglarda piyoda askarlarning o'zlariga sapyorlarsiz sim to'siqlarni yengib o'tishga to'g'ri kelgan. Bunday vaziyatda plashch-palarka va shinellarni tashlab o'tish o'rgatiladi.[8]

Matbuotda jangovor nizom qoidalarini, jang olib borish taktikasini jangchilarga yetkazish, tushuntirish uchun jangchilar tili bilan yozilgan jonli maqolalardan keng foydalanilgan. Bunday maqolalar "jang tajribalaridan" turkumi bilan berilib, bu orqali jang olib borishning mayda ikir-chikirlarigacha batafsil tushunchalar berib borilgan.

Urushda pulemyot ishlatishdagi mohirlik haqida so'z borib, pulemyotchi uchun birinchi qoida: qayda "ura" ovozlari eshitilsa, shu zahoti o'sh yerga yetib borish kerak bo'lgan. Ikkinchi qoida: mustahkamlan degan buyruq berilishi bilan oq, kurakchani olish aytiladi. Maqolada "Kuraksiz yurma – okopsiz qolma", "Kuragi yo'qning umri yo'q" kabi o'tli iboralarni ishlatish orqali jangchiga okopning muhim ahamiyatiga urg'u berib o'tiladi.[9] Jang paytida pulemyotchi uchun ayniqsa, okopning muhimligi, okop qanchalik chuqur qazilsa jangchini tank ham eza olmasligi, o'q ham ura olmasligi, shu bilan birga qo'shimcha okoplarning bo'lishi kerakligi aytiladi.

Pulemyotchining vazifasi haqida boshqa bir o'rinda "Otdeleniya (bo'linma) hujum qilgan chog'ida qo'l pulemyotchining vazifasi ayniqsa ma'suliyatli bo'ladi. U har vaqt otdeleniyening oldida harakat qilib, dushman pozitsiyalarini o'qqa tutishi va shu bilan boshqa jangchilarning ilgari siljishiga yordam berishi lozim" deyiladi.[10] Shu bilan birga urush davridagi piyodalar uchun jangovor nizomdan parchalar keltirilib: "Piyodalarning hujum chog'ida jur'at bilan ilgari siljishi va mudofaada qattiq qarshilik ko'rsatishi jangning oqibatini hal qiladi. O't ochish, manyovr qilish va nayzabozlik – jangda piyodalar harakatining asosiy usullaridir" deyiladi[10]. Bunday turdagi maqolalar shuni ko'rsatadiki, sovet jangchilarini dushman transheyalariga bostirib kirilganda yoki mudofaa janglarida qurolning kuchidan to'liq foydalanishga, o'qlar tugagan paytda esa miltiq nayzasi bilan jangni davom ettirishga, jamoa bilan birga harakat qilishga, hujum janglariga katta ma'suliyat va jiddiylik bilan qarashga chaqiriladi.

Dushman bilan janglarda snayperlarning ahamiyati juda katta bo'lgan. Shuning uchun ham matbuot sahifalarida ushbu sohada harbiy bilim va qoidalar haqida ma'lumotlar berib borishga alohida urg'u berilgan.

Masalan, Snayper jangchi ega bo'lishi kerak bo'lgan sifatlar haqida shunday deyiladi: "Snayper mohir, jasur va chaqqon bo'lishi bilan birga er sharoitiga qarab o'zgarib bilishi zarur. Ya'ni qish bo'lsa oq xalat kiyib qor va muz niqobida bo'lib, bahor va yozda esa kiyimi o'rmon va ko'katlar shakliga o'xshash bo'lishi kerak. Yaxshi niqoblanish – bu o'zini saqlash demakdir, dushmanni birinchi o'q bilan oq yo'q qilishning garovidir. Snayper sabrli, chidamli, allaqerda lip etib ko'ringan narsani darhol payqab, oraligini tez o'lchab chiqadigan ko'zlari o'tkur bo'lmog'i lozim"[5].

Mergan snayperlardan Petr Golovin, Mamadali Madaminov, Mo'min Nuritdinov, Mixail Poxlebkina o'xshash merganlar namuna sifatida ko'rsatildi. Ularning har biri 300 ga yaqin nemisni o'ldirgan, demak, bir jangchi ikki

rota nemisni yo'q qilgan bo'lib chiqadi[3]. Hamma jangchilar ham bulardan o'mak olishga chaqiriladi.

Jangilarning urush maydonlarida ro'y beradigan favqulodda holatlarda mustaqil harakat qila olishlari uchun orientrovka ya'ni bir joydan turib to'rt tomon – shimol, janub, sharq va g'arb tomonlarni aniqlay olishning bir necha usullari aytiladi:

– To'nkalar orqali. Aralab tushirilgan daraxtdan qolgan to'nkada xalqa shaklidagi qatlamlar ko'rinadi. Bu qatamlarning janubga qaratilgan tomoni torroq, shimolga qaratilgan tomoni kengroq bo'ladi;

– Yakka tosh orqali. Yo'lda uchragan yakka katta toshga diqqat bilan qaralsa, ko'rinadiki, uning bir tomoni toza, bir tomoni moh (mayda o'simlik) bilan qoplangan. Toshning toza tomoni janubga qaragan, mox bosgan tomoni esa shimolga qaragan bo'ladi;

– Yakka daraxt orqali. Yakka o'sgan daraxtlarda janub tomondagi shoxlar uzunroq va qalinroq o'sadi. Daraxtlarning po'stlog'i shimol tomonda g'adir-budurroq va ko'pincha (ayniqsa, qayin va tog' teraklarida) mox bilan qoplangan bo'ladi[11].

Bunday ma'lumotlar favqulodda yuz beradigan turli vaqtlarda o'z harbiy bo'linmasidan ajralib qolgan jangchilarga, razvedkachilarga, partizanlik harakatlarini olib borishda avvaldan o'rganilmagan hududlarda harakat qilish uchun xizmat qilgan albatta.

Harbiy ta'limga qaratilgan maqolalarda hushyorlik masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Masalan, harbiy qismga yaqinlashayotgan har qanday kimsani hattoki, u rus tilida gapirib, qizil askar ko'rinishida bo'lsa ham uni avval sinchiklab tekshirish, to'la ishonch hosil qilingandagina uni qismga kiritish ta'kidlanadi. Buni qizil askar qiyofasida yaqinlashgan bir necha nemis josuslarini ushlab fosh qilinishi kabi jonli voqealar bilan asoslab beriladi. Bu bilan har bir askarni doimo hushyor turishga chaqiriladi. Buni rus, ukrain, polyak va boshqa tillarni yaxshi biladigan nemis gestapo maktablarida ta'lim olgan ustasi farang josuslarning sovet askarlarining hushyorligi natijasida qo'lga olinganligi bilan izohlanadi.[5:254]

Germaniya Sovet ittifoqiga bostirib kirgan paytda shiddat bilan hujum qilib qisqa davr ichida katta hududni egallab olgandi. Bu hujumlarda tanklar katta ahamiyat kasb etgan. Nemis tanklari sovet piyoda askarlarini sarosimaga solib qo'ygan. Tanklar go'yoki yengib bo'lmas harbiy texnika edi. Gazeta maqolalaridan birida nemislarning T-VI tankiga qarshi kurash tog'risida harbiy usullar yoritib berilgan.

Maqola mazmuniga ko'ra, tankning zarba berish mumkin bo'lgan nozik qismlari sifatida tankning harakatini ta'minlaydigan eng ma'suliyatli bo'laklari bo'lgan oldingi yurgizuvchi g'ildiragi, keyingi yo'naltirgich g'ildiragi, tayanch g'ildiraklari va gusenitsasi (tank g'ildiragining zanjiri); Yon zirxlari, benzin baklari va dvigateli joylashgan qismlari; tankning mo'ralash yoriqlari hamda tankning minorasi hisoblanishi haqida ma'lumotlar berilgan[12].

Tankka qarshi jangda esa aynan shu qismlarga qanday qurollar bilan kurashish kerakligi to'g'risida ma'lumot keltirilgan. Bunday qurollar sifatida tankka qarshi tashlanadigan mina, granata, tankka qarshi otadigan miltiq, 76.57 va 45 millimetrlilik to'plar, o'zi yonadigan shishalar, har qanday kalibrli to'plarning fugas va zirxteshar snaryadlari, pulemyot ko'rsatilgan. Nemislarning T-VI tankining jami 13 ta yoriqlari bo'lib, ularga oddiy miltiq bilan otib ham tank ekipajini halok qilish mumkinligiga alohida urg'u berilgan[12]. Bunday maqolalar bilan jangchilarni dushman tanklariga qarshi kurashda sarosimaga tushmaslikka, harbiy bilimlarni ishga solib, aql bilan kurashishga chaqiriladi.

Fashistlarning tanklariga va shu kabi harbiy texnikalariga qarshi kurashda qudratli qurol – artilleriya hisoblangan. Qizil armiya orasida artilleriyaning "urushning hudosi" deb atashgan[5]. Maqolada dushman tanklariga qarshi artilleriya foydalanishda ko'proq e'tibor qaratilgan jihat shuki, janglarda dushman tanklarini yaqinroq keltirib o't ochish kerak bo'lgan[5].

Urush davri gazetalarida harbiy texnika va mashina haydovchilarini ham o'z vazifalariga ma'suliyat bilan yondoshishga chaqiriladi. Janglarda ishtirok etayotgan haydovchilarning shahsiy tajribalari sifatida berilgan gazeta ma'lumotlarida "mashina 60-70 km yo'l bosib kelgandan so'ng unga yopishgan loy va changlarni artib, gayka va boshqa ayrim qismlarini yog'lash lozim, har bir mashina 500 km yo'l bosgandan keyin uni bir marta chala remontdan chiqarish kerak" deya uqtiriladi[13].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Ikkinchi jahon urushi yillarida mamlakatimizda harbiy tayyorgarlik kurslari va boshqa tayyorlov mashg'ulotlari tashkil etilishi bilan birga front hududlarida va mamlakatimizda nashr etiladigan o'zbek milliy gazetalarida askarlarga jang olib borish usullari, sovet qurollaridan foydalanish, dushmanning harbiy texnikasiga qarshi kurashish yo'llari haqida ko'plab maqolalar chop etib borildi. Bu bilan frontdagi askarlarning malaka va bilimlarini yanada mustahkamlashga, shu bilan birga front ortidagi bo'lajak jangchilarni nazariy bilimlarini oshirishga harakat qilindi.

ADABIYOTLAR

1. <https://fayllar.org/sharq-nashriyot-matbaa-aksiyadorlik-kompaniyasi-bosh-tahririya-4.html?page=12>
2. Милтик/Сталин ҳақиқати. 1941 йил 27 ноябрь. №282 (2109) –Б.3
3. Шамсутдинов Р. Иккинчи жаҳон уруши ва фронт газеталари. 1-китоб. – Т.: Академнашр, 2017. –Б. 65
4. Ўзбекистон Миллий архиви. Фонд – Р-1735. руйхат – 1. жилд –1. вароқ – 165.
5. Шамсутдинов Р. Иккинчи жаҳон уруши ва фронт газеталари. 2-китоб. – Т.: Академнашр, 2017. –Б.41
6. Хужум ғалаба йўлидир// Қизил армия. 1944. 25 март. №25 (130) –Б.4
7. Тутун панасида//Душманга қарши олға. 1944. 29 март. №25 (186)–Б.3
8. Ёрдамчи асбобларсиз сим тўсиқлардан ўтиш//Душманга қарши олға. 1944. 28 май. №42 (203) –Б.2
9. Харақатдан баракат//Қизил армия.№ 13.(118) 1944. 15 февраль. –Б.2
10. Қўл пулумёт катта куч//Душманга қарши олға. №11.(172) 1944. 9 февраль. –Б. 3
11. Оддий аскар ва кичик командирларга ёрдам учун топографиядан қисқача маълумотлар//Душманга қарши олға. №12.(173) 1944. 12 февраль. –Б.3
12. Мард жангчи танкдан қўрқмайди (Немис Т-VI танкига қарши кураш усуллари)//Душманга қарши олға. 1944. 1 март. №17 (178) –Б.3
13. Душманга қарши олға. 1944. 6 апрель. №27 (188) –Б.3



УДК: 94(584.4):355.47

Ihtiyor BOHODIROV,

O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

O'zMU dotsenti, t.f.d. Ermetov A.A. taqrizi asosida

THE ROLE OF THE TURKESTAN MILITARY DISTRICT IN THE OCCUPATION OF THE CENTRAL ASIAN COUNTRIES

Abstract

During the 19th century the Russian empire waged large-scale wars of conquest in Turkestan. Russia introduced a militarized colonial system in the occupied territories. The Turkestan military district played a basic role in the system of militarized governance in Turkestan. The Turkestan military district was formed for imperial government to need a permanent army to completely occupy Turkestan, to keep the Bukhara emirate and the Khiva khanate under its control. The military district supported the Russian colonial system in Turkestan for 50 years.

Key words: military district, route, cossack, general, captain, colonel, battery, corpus, detachment, artillery, adjutant, major.

РОЛЬ ТУРКЕСТАНСКОГО ВОЕННОГО ОКРУГА В ОККУПАЦИИ ГОСУДАРСТВА СРЕДНЕЙ АЗИИ

Аннотация

В XIX века Российская империя широкомасштабные захватнические войны в Туркестане. Россия установить на оккупированных территориях милитаризованную колониальную систему. Военный округ был создан из-за необходимости наличия в крае регулярной армии для завершения полной оккупации Туркестана, сохранения Бухарского эмирата и Хивинского ханства под влиянием России. На протяжении 50 лет Туркестанский военный округ был опорой Российской колониальной системы в Туркестане.

Ключевые слова: военный округ, рота, казак, генерал, капитан, полковник, батарея, корпус, отряд, артиллерия, адъютант, майор.

TURKISTON HARBIY OKRUGINING O'RTA OSIYO DAVLATLARI BOSIB OLINISHIDAGI ROLI

Annotatsiya

XIX asr davomida Rossiya imperiyasi Turkistonda keng ko'lamli istilochilik urushlari olib borgan. Rossiya bosib olingan hududlarda harbiylashtirilgan mustamlaka tizimini joriy etadi. Turkistonda harbiylashgan boshqaruv tizimida asosiy bo'g'in vazifasini Turkiston harbiy okrugi bajargan. Turkiston harbiy okrugi imperiya hukumatiga Turkistonni to'la egallashni yakunlash, Buxoro amirligi va Xiva xonligini o'z ta'sirida saqlab turish uchun o'lkani o'zida muntazam armiya zarurligi sababli tashkil qilingan. Harbiy okrug o'zining 50 yillik faoliyati davomida Turkistonda Rossiya mustamlakachilik tizimining asosiy tayanchi bo'lgan.

Kalit so'zlar: harbiy okrug, rota, kazak, general, kapitan, polkovnik, batareya, korpus, otryad, artilleriya, adyutant, mayor.

Kirish. XIX asrning 40-80 yillarida O'rta Osiyo davlatlari Rossiya tomonidan bosib olingan. Harbiy harakatlar davomida Rossiy hukumati o'lkada muntazam qo'shin tashkil etgan. Mustamlakachilar Turkistonni egallashni harbiy okrug askarlari kuchiga tayangan holda amalga oshirgan. O'lkani istilo qilish jarayonlarida Turkiston harbiy okrugi qo'shinlarining faoliyati, qurollanish tizimi, okrug askarlarining o'lkaholisiga bo'lgan munosabatini o'rganish tarixchilar oldidagi muhim vazifalardan biridir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavzuga tegishli adabiyotlarni uch davrga ajratish mumkin. Birinchisi Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davri (colonial davr). Bu davrda yaratilgan adabiyotlarning ko'pchiligi ulug'davlatchilik mafkurasida yaratilgan, ammo ular juda ko'plab aniq statistim malumotlarni o'z ichiga qamrab olgan. Ikkinchi davr, XX asrning 20-80 yillarida yozilgan, yani sovet davrida yaratilgan adabiyotlardir. Bu davrda yaratilgan adabiyotlarda mavzu asosan sovet mafkurasida tahlil etilgan. Uchinchi davr esa, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng nashr etilgan tadqiqotlardir.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolaning yozilishsh jarayonida umummilliy metodlardan foydalanildi, xususan, tizimli, tarkibli, funksional, qiyosiy tahlil, bashorat qilishning mantiqiy va tarixiy yondashuvlaridan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar. XIX asr ikkinchi choragidan boshlab Rossiya o'zining istilochilik rejalaridagi asosiy

maqsadlaridan biri bo'lgan O'rta Osiyo davlatlarini bosib olishga kirishgan. O'rta Osiyo xonliklarini egallab olishning juda muhurligi haqida o'z vaqtida Rossiya tashqi ishlar vaziri Aleksandr Gorchakov (1856-1882) "Rossiyaning kelajagi O'rta Osiyoda" deb takidlagan edi[1].

Rossiya imperiyasining Orenburg va G'arbiy Sibir general-gubernatorligi qo'shinlari tomonidan Qo'qon xonligining 1850-yil Qo'shqo'rg'on, 1851-yil To'ychieb, 1853-yil Oqmasjid, 1860-yil To'qmoq, Pishpak, 1863-yil Suzoq, 1864-yil Marka, Avliyoota, Turkiston, Chimkent, Sayram, 1865-yili Toshkent kabi qal'a va shaharlarini zabt etiladi. 1866-yil esa Buxoro amirligi tarkibidagi Xo'jand, O'ratepa, Jizzax shaharlari bosib olinadi.

1865-yil 2-mart kuni Rossiya Senati Orenburg general-gubernatorligi tarkibida Orol dengizidan Issiqko'lgacha egallangn hududlarda aholisi 453 000 kishidan iborat Turkiston viloyati tashkil etish to'g'risida farmon e'lon qildi[2]. Viloyat gubernatori qilib M.G.Chernyayev tayinlandi. Yangi tashkil etilgan viloyat markazi Toshkent shahri qo'lga kiritilguncha Chimkent shahri bo'ladi.

1867-yil 11-iyulda o'lkada alohida Turkiston general-gubernatorligi tuziladi. Rossiya imperiyasiga Turkistonni to'la egallash, Qo'qon, Buxoro va Xivani o'z tasiri ostida saqlab turish uchun o'lkani o'zida muntazam qo'shinga extiyoj sezardi. Zero, 1867-yilgacha bo'lgan harbiy jarayonlarda asosan Sibir va Orenburg otryadlaridan foydalanilgan.